



**“ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA’LIMNING DOLZARB  
MASALALARI: MUAMMOLAR, VAZIFALAR VA YECHIMLAR”  
mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman  
ishtirokchisi**

**JAMOLIDDIN G‘OFUROV**

**SERTIFIKAT**

**bilan taqdirlanadi**

**Oriental universiteti rektori**

**N.Mamataxunov**



14.10.2025-yil

## MATEMATIKA DARSLARIDA MUAMMOLI VAZIYATLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

<https://zenodo.org/records/17732905>

*G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich,  
Oriental universiteti "Uzluksiz ta'lim pedagogikasi" kafedrası  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarini samarali tashkil etishda muammoli vaziyatlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan. Muallif muammoli ta'limning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rnini haqida fikr yuritadi. Shuningdek, muammoli vaziyat asosida tashkil etilgan topshiriqlar o'quvchilarda bilimga qiziqish uyg'otishi, ularda matematik tushunchalarni chuqurroq o'zlashtirish va hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishini ilmiy hamda amaliy misollar orqali asoslab beriladi. Maqola davomida muammoli vaziyatlarning dars jarayonidagi samaradorligi, ularni qo'llashning metodik imkoniyatlari va o'qituvchi faoliyatiga qo'yadigan talablari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar.** Muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, matematika darslari, boshlang'ich ta'lim, ijodiy fikrlash, mantiqiy tafakkur

**Abstract.** This article analyzes the importance of using problem situations in the effective organization of mathematics lessons in primary school. The author discusses the role of problem-based learning in developing students' independent thinking, creative approach, and logical reasoning. It is also substantiated through scientific and practical examples that tasks based on problem situations arouse students' interest in learning, enable them to acquire mathematical concepts more deeply, and develop skills to apply knowledge in real-life contexts. The article further highlights the effectiveness of problem situations in the learning process, the methodological possibilities of their application, and the requirements they place on the teacher's activity.

**Keywords.** Problem-based learning, problem situation, mathematics lessons, primary education, creative thinking, logical reasoning

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini tashkil etish jarayonida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga va mantiqiy tafakkur qilishga o'rgatish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. An'anaviy ta'limda o'quvchilar ko'pincha tayyor bilimlarni yodlab olish bilan cheklanib qoladilar. Natijada ularning o'z fikrini bildirish, mustaqil xulosa chiqarish, ijodiy yondashuv ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaydi. Shu nuqtayi nazardan muammoli vaziyatlardan foydalanish juda muhimdir. Muammoli ta'lim shunday uslubki, bunda o'quvchilarga darhol javob topish qiyin bo'lgan savollar beriladi va ularni hal qilish jarayonida izlanishga, o'ylashga, mantiqiy xulosalar chiqarishga

majbur bo'ladilar. Bu usul matematika darslarini qiziqarli, samarali va hayotiy misollar bilan boyitadi.

**Muammoli vaziyat tushunchasi va uning mohiyati.** Boshlang'ich ta'limda "muammoli vaziyat" tushunchasi o'quvchilar uchun maxsus tashkil etilgan, javob topish uchun qo'shimcha izlanish, mulohaza va mantiqiy fikrlashni talab qiladigan topshiriqni anglatadi. Oddiy mashq bilan muammoli topshiriqning farqi shundaki, oddiy mashqda tayyor algoritmnini qo'llash kifoya bo'lsa, muammoli topshiriqda o'quvchi vaziyatni tahlil qiladi, turli variantlarni sinab ko'radi va yakuniy xulosaga keladi.<sup>1</sup>

Masalan:

• **Oddiy mashq:**  $15 + 8 = ?$

• **Muammoli vaziyat:** Maktab kutubxonasiga 15 ta yangi kitob keltirildi. Ertasi kuni esa yana 8 ta kitob olib kelishdi. Hozir kutubxonada jami nechta yangi kitob bor?

Ikkinchi holatda o'quvchi oddiy qo'shish amalini bajarishdan tashqari, hayotiy vaziyatni tasavvur qiladi, matematik amalni real hayot bilan bog'laydi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida muammoli vaziyatlardan foydalanish ko'plab ijobiy natijalarni beradi:

1. **Bilishga qiziqishni oshiradi.** O'quvchilar oddiy misollardan tez zerikadi. Qiziqarli muammoli topshiriqlar esa ularni faol ishtirok etishga undaydi.

2. **Mustaqil fikrlashni shakllantiradi.** O'quvchi o'qituvchidan tayyor javob kutmaydi, o'zi izlanishga intiladi.

3. **Ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.** Bir muammoni turli usullar bilan yechishga urinish o'quvchilarda ijodkorlikni kuchaytiradi.

4. **Mantiqiy tafakkurni mustahkamlaydi.** Muammoli topshiriqlarni yechish jarayonida sabab va oqibatni aniqlash, izchillikni saqlash ko'nikmalari shakllanadi.

5. **Hayot bilan bog'laydi.** Matematika darsida ko'rib chiqilayotgan masala real hayotga taalluqli bo'lsa, o'quvchi bilimining amaliy ahamiyatini anglaydi.

6. **Jamoadi ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.** Guruhli muhokamalar orqali bolalar bir-biridan o'rganadi, o'z fikrini himoya qilishni o'rganadi.

***Boshlang'ich sinf matematikasida muammoli vaziyatlarga oid amaliy misollar***  
**1-sinf uchun misollar**

1. O'quvchilar 5 ta olma yig'ishdi. Keyin yana 3 ta olma topishdi. Jami nechta olma bo'ldi?

2. Bir qutida 6 ta qalam bor. 2 ta qutida jami nechta qalam bo'ladi?

3. O'qituvchi sinfga 10 ta daftar olib keldi. O'quvchilar undan 4 tasini oldi. O'qituvchida nechta daftar qoldi?

4. Bir bolada 8 dona shokolad bor edi, u do'stiga 5 tasini berdi. Unda nechta shokolad qoldi?

5. Darsda 7 ta bola qo'l ko'tardi, keyin yana 4 ta bola qo'l ko'tardi. Nechta bola savolga javob berishni xohladi?

**2-sinf uchun misollar**

1. Bir bog'bon 3 qutiga 9 tadan ko'chat ekdi. Jami nechta ko'chat ekilgan?

---

<sup>1</sup> Azizxo'jayeva, N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.* – Toshkent: O'qituvchi, 2006.128-bet

2. Bir uyda 24 ta deraza bor. Agar uyning 4 qavatida derazalar teng joylashgan bo'lsa, har bir qavatda nechta deraza bor?

3. Kutubxonaga 15 ta kitob olib kelindi, ertasi kuni undan 2 marta ko'p kitob keltirildi. Jami nechta kitob keltirildi?

4. Bir daftarda 12 bet bo'lsa, 5 ta daftar jami nechta betdan iborat bo'ladi?

5. O'quvchi 18 ta konfetning 6 tasini o'zi yedi, qolganlarini 3 do'stiga teng taqsimladi. Har bir do'stiga nechta konfet tegdi<sup>1</sup>?

### **3-sinf uchun misollar**

1. Bir do'konda ertalab 36 ta non sotildi. Kechqurun ertalabkidan 2 baravar ko'p non sotildi. Bir kunda jami nechta non sotildi?

2. 120 ta o'quvchi 4 ta sinfga teng taqsimlandi. Har bir sinfdan nechta o'quvchi bor?

3. Bir fermer 45 kg olma terdi. U har bir qutiga 9 kgdan joyladi. Nechta quti hosil bo'ldi?

4. Avtobusda 48 ta o'rin bor. Agar 6 qator bo'lsa va har bir qator o'rinlari teng bo'lsa, qatorlarda nechta o'rin bo'ladi?

5. Bir qishloqda 5 ta ko'cha bor. Har bir ko'chada 12 tadan uy joylashgan. Qishloqda jami nechta uy bor?

### **4-sinf uchun misollar**

1. Bir poyezdda 240 ta o'rin bor. Agar 5 ta vagon bo'lsa va har birida o'rinlar soni teng bo'lsa, bitta vagonda nechta o'rin bor?

2. Fermer daladan 560 kg kartoshka yig'di. Uni 8 ta mashinaga teng taqsimladi. Har bir mashinaga nechta kilogramm kartoshka yuklandi?

3. Bir qalam 120 so'm turadi. 25 ta qalam olish uchun qancha pul kerak bo'ladi?

4. Fabrika bir kunda 480 dona o'yinchoq ishlab chiqardi. Agar bu o'yinchoqlar 12 ta qutiga teng joylashtirilsa, har bir qutida nechta o'yinchoq bo'ladi?

5. Bir sinfdan 36 o'quvchi bor. Agar o'quvchilar 6 kishidan guruh bo'linishsa, nechta guruh hosil bo'ladi?

**Muammoli vaziyatlarni darsda qo'llashda o'qituvchi quyidagi vazifalarni bajaradi:**

O'quvchilar bilim darajasiga mos muammoli vaziyatlarni tanlaydi. Savollarni shunday shakllantiradiki, o'quvchilar javobni izlash jarayonida faol bo'lishadi. Darsni to'g'ridan-to'g'ri "tayyor yechim" bilan emas, balki savol-javoblar, muhokama va izlanish orqali olib boradi. O'quvchilar topgan turli yechim variantlarini tinglaydi va ularni rag'batlantiradi. Xulosa chiqarishda o'quvchilarga yordamchi yo'naltiruvchi sifatida ishtirok etadi. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida muammoli vaziyatlardan foydalanish ta'lim jarayonida o'ta muhim o'rin tutadi. Muammoli topshiriqlar o'quvchilarni faollashtiradi, ularni tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlovchi, fikrlovchi va qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shuningdek, bu usul o'quvchilarning matematik bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga, ularni amaliy hayotda qo'llashga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirishiga katta yordam beradi. Muammoli vaziyatlar o'quvchilarda mustaqil va mantiqiy tafakkurni, ijodiy yondashuvni rivojlantiradi, bilim olishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Ularning yechimi

<sup>1</sup> Yo'ldoshev, J.G., Usmonov, S.A. *Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent: TDPU, 2019.256-bet.

jarayonida o'quvchilar masalani turli tomondan ko'rib chiqish, muqobil yechimlarni topish, xulosalar chiqarish kabi faoliyatlarga jalb etiladi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat matematik, balki umumiy intellektual salohiyatini ham rivojlantiradi. Muammoli ta'lim metodini qo'llash o'qituvchidan ham metodik mahoratni, topshiriqlarni o'quvchilar yoshiga mos tanlashni va darsni samarali tashkil etishni talab etadi. O'qituvchi bu jarayonda bilim manbai emas, balki yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, matematika darslarida muammoli vaziyatlardan foydalanish o'quvchilarning tafakkuri, ijodiy qobiliyatlari, mustaqil qaror qabul qilish va amaliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa ularning keyingi ta'lim bosqichida muvaffaqiyat qozonishi va hayotda uchraydigan turli muammoli holatlarni yechishga tayyor bo'lishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. Azizxo'jayeva, N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.* – Toshkent: O'qituvchi, 2006.128-bet
2. Yo'ldoshev, J.G., Usmonov, S.A. *Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar.* – Toshkent: TDPU, 2019.256-bet
3. Zunnunov, A., Qo'ysinov, O. *Matematika o'qitish metodikasi.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.145-bet
4. Poyonov, M. *Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini o'qitish metodikasi.* – Toshkent: TDPU, 2020.34-36 betlar